



## OZOD SHARAFIDDINOV PUBLITSISTIKASIDAGI O'ZIGA XOS JIHATLAR

**Idrisxonova Jozibaxon Ismoilxon qizi,**  
*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy  
kommunikatsiyalar universiteti,  
Oliy jurnalistik kurslari yo'nalishi  
2-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada Ozod Sharafiddinov publitsistikasining o'ziga xosligi, uning zamondosh publitsistlardan ajralib turadigan jihatlari, publitsist maqolalarida ilgari surilgan g'oyalar to'g'risida fikrlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, Ozod Sharafiddinov publitsistikasini o'rgangan hozirgi zamon olimlarining ishlari to'g'risida ham so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** publitsistika, jadidchilik, ilm, ma'rifat, til, milliy g'oya, jug'rofiya, millat.

**Аннотация.** В статье рассматривается специфика публицистики Озода Шарафиддина, ее отличия от современных журналистов, а также идеи, выдвинутые в его статьях. Также говорят о работе современных ученых, изучавших журналистику Шарафиддина.

**Ключевые слова:** публицистика, джадидизм, наука, просвещение, язык, национальная идея, география, нация.

Ozod Sharafiddinov (1929–2005) o'zbek ziyorolarining iste'dodli namoyandalaridan biri: atoqli olim, professor, o'qituvchi, publitsist, tarjimon, "Jahon adabiyoti" jurnali bosh muharriri. Uning xizmatlari inobatga olinib, O'zbekiston Qahramoni unvoni berilgan. U o'z zamonasining yetuk namoyandasasi, ko'plab maqolalar muallifi hamdir.

Ozod Sharafiddinov adabiyotga o'tgan asrning 60-yillarida o'ziga xos ko'rinish bilan kirib kelgan. Uning badiiy adabiyot muammolariga bag'ishlangan dolzarb maqolalari, ayniqsa, "Vaqt, ruh, she'riyat" kitobi o'zbek adabiyotiga yangicha nafas olib kirdi. Olimning otashin yurak, talabchanlik, atoqli o'zbek adib va shoirlari haqida chuqur ilmiy izlanishlar bilan yozilgan badiiy-tanqidiy asarlari adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa qo'shdi.

Ozod Sharafiddinov asosiy ilmiy-pedagogik faoliyati bilan bir qatorda ma'naviy-ijtimoiy sohalarda ham faollik ko'rsatgan professor-o'qituvchidir. Shu tariqa u yosh iste'dodlarni tarbiyalash va shakllantirish borasida samarali faoliyat olib bordi.

Ozod Sharafiddinov 1996-1997-yillarda "Tafakkur" jurnali bosh muharriri o'rribosari, 1997-yildan umrining oxirigacha "Jahon adabiyoti" jurnali bosh muharriri





lavozimlarida ishlagan. Bu davrda u dono rahbar va iste'dodli tarjimon ekanligini isbotladi, Uning tarjimasida jahon adabiyotining noyob asarlari nashr etilgan.<sup>1</sup>

Misol tariqasida, “Ko‘lmak suvda quyosh parchasi” (Fransuaza Sagan), “Qadimgi xitoy nasri namunalari”, “Monumental targ‘ibot” (V. Voynich), “Alkimyogar” (Paulo Koelo) singari asarlar shular jumlasidan.

U ilmiy faoliyatida o‘zbek filologiyasining dolzARB mavzularida qalam tebratdi. Jumladan, poeziya muammolari bilan shug‘ullandi, o‘zbek she’riyati haqida adabiy-tanqidiy maqolalar yozdi. O’sha davrdagi ilmiy-ijodiy, adabiy-tanqidiy izlanishlari “Zamon. Qalb. Poeziya” (1962) asarida o‘z aksini topgan. XX asrning 60-80-yillarida Cho‘lpon hayoti va ijodini targ‘ib qilishga intildi.

Mustaqillik yillarida Ozod Sharafiddinov ham adabiy tanqidchi, ham tarjimon, ham jamoat arbobi sifatida ulkan ishlarni amalga oshirdi. “Cho‘lpon” (1991), “Cho‘lponni anglash” (1994) kitoblari, “E’tiqodimni nega o‘zgartirdim” (1997) asarlarida munaqqidning estetik prinsiplari aks etgan. O‘zbek adiblari, madaniyat-san’at arboblari, olimlar haqida o‘nlab maqolalar yozdi.

Ozod Sharafiddinov o‘zbek adabiyotining Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya singari namoyandalari haqida adabiy portretlar yaratdi. Olim ijodida o‘zga adabiyotlar namoyandalari ijodi haqida yaratilgan “Yalovbardorlar” (1974) adabiy-tanqidiy ocherklar kitobi muhim o‘rin egallaydi. XX asrning 60-yillaridan XXI asrgacha bo‘lgan o‘zbek adabiy jarayonidagi holatlarni “Talant – xalq mulki” (1979), “Adabiyot – hayot darsligi” (1981), “Go‘zallik izlab” (1985), “Haqiqatga sadoqat” (1988), “Sardaftar sahifalari” (1999), “Prezident” (2003) singari asarlarida aks ettirdi.<sup>2</sup>

O.Sharafiddinovning munaqqidlik faoliyatida 2 davr ko‘zga tashlanadi. Birinchi davr sho‘ro totalitar tuzumida kechgan bo‘lib, unda adabiyotni totalitar mafkura g‘oyalardan himoya qilish, adabiy qonuniyatlar asosida tadqiqotlar olib borish muammolari tadqiq etilgan (“Zaharxanda qahqaha”, 1962; “Hayotiylik jozibasi, sxematizm inersiyasi”, 1979; “Yurtin madhi bo‘ldi so‘nggi satri ham”, 1979; “She’r ko‘p, ammo shoirchi?”, 1983). Ikkinci davr munaqqid faoliyatida asosiy davr bo‘lib, u istiqlol yillaridagi ijodini qamrab oladi. Bu davrda Sharafiddinov milliy adabiyotni shakllantirish muammolari, o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligin qayta qurish,

<sup>1</sup> <https://www.ziyouz.uz/ru/deyateli-uz/44-deyateli-nauki/70-2012-09-02-13-45-12>

<sup>2</sup> <https://oyina.uz/kiril/generation/75>





jahon adabiyoti an'analarini o'zlashtirish hamda tarjima san'atini yuksaltirish masalalarini tadqiq etgan ("Bir tilda gaplashaylik", 1987; "Mag'zi puch so'zlardan bir tosh nari qoch", 2000; "Qaydasan, Moriko", 2002).

O. Sharafiddinov ijodining cho'qqisi "Ijodni anglash baxti" (2004) kitobidir. Unda o'zbek adabiyotining jahon adabiy jarayonida tutgan o'rni va ilmiy-ma'naviy o'zanlari tadqiq etib berilgan.<sup>3</sup> Ozod Sharafiddinov hayatda ham, ijodda ham o'zining haqqoni so'zi, iroda va matonati bilan yurtdoshlarimizga, avvalambor yoshlарimizga ibrat bo'layotgan, tom ma'nodagi ma'rifat-parvar insondir.

Agar adabiyotimiz tarixi o'zanidan turib, yaqin yuz yillikka nazar tashlasak, juda ko'p qalamkashlarning nomlariga ko'zimiz tushadi. Ulardan hech birining xizmatlarini sira ham kamsitmagan holda aytish mumkinki, keyingi ellik yil ichida faoliyat ko'rsatgan adabiyotshunoslar, publisistlar silsilasida Ozod Sharafiddinovning nomi alohida bir cho'qqi yanglig' ko'zga tashlanib turibdi.

Kishi ismiga tortadi degan ta'bir – dono hikmat. Ozod Sharafiddinov O'zbekiston va o'zbek adabiyotining XX asr tarixida chinakamiga o'z shaxsi, o'z dunyoqarashi, o'z e'tiqodi, o'z iste'dodi, o'z imkoniyatlari ozodligini bir butun takrorlanmas hodisa deb bilgan, bu yuksak qadriyatlar taqozo etadigan mashaqqatlar yukiga yelkasini og'rinmay tutgan, bir zum el nazaridan chetda emasligini his etib yashagan allomalardan.

Hazrat Mahmud Qoshg'ariy qomusini turkiy tilda tuzib ketgan, Yusuf Xos Xojib va Navoiy ruhiy qudrati bilan buyuk ma'naviy obidalar yaratilganidan keyin asrlar o'tib Mavlono Abdulla Qodiriq qalamidan dilbar nasr dunyoga kelgani hammaga ayon. Ana shu silsilada davr taqozosi bilan uzelish sodir bo'lganida Ozod Sharafiddinov degan munaqqid dunyoga kelishi tabiiy edi. Gap shundaki, Odil Yoqubov nasri va Abdulla Oripov nazmi yangi bir avlod dunyoga kelganini isbotlashi urchun ularni qo'llab-quvvatlash kerak edi.

Ana shu zalvarli yukni zimmasiga olgan adabiy tanqidchimiz o'zbek adabiyoti silsilasida uzelish bo'lmasiligi urchun kurashdi, mas'uliyatini tengdoshlari bilan baham ko'rdi, rang-barang asarlarni qo'llab-quvvatladi, javobini ololmagan savollariga jahon adabiyoti va falsafasi ummonidan talqin izladi, nimalarnidir topgandek bo'ldi. Qarabsizki, nafaqat 60-yillar avlodlari qolaversa, yangi avlodlar ham Ozod

<sup>3</sup> <https://akademiklar.uz/sharafiddinov-ozod>





Sharafiddinov nuqtai nazari bilan hisoblashadigan bo'ldi. Buning boisi alloma yaratgan maqolalar va asarlar nainki adabiy, shuning barobarida falsafiy tanqid edi.

Ozod Sharafiddinov adabiyotning bosh vazifasi Olam, Inson va uning qalbini tasvirlash degan azaliy qadriyat, ya'nikim bag'ri butunlikda ekanligiga sodiq qoldi.

Ozod Sharafiddinov ijod qilgan davrda o'zbek adabiyotida jahon adabiyoti talablariga javob bera oladigan bir talay asarlar yaratildi. Shuhrat, Said Ahmad, Shukrullo, ularning izidan kelgan Pirimqul Qodirov va Odil Yoqubov, so'z san'atimizga yangi qon bo'lib qo'shilgan O'tkir Hoshimov va Shukur Xolmirzayev, she'riyatimiz ufqlarini kengaytirgan Erkin Vohidov va Abdulla Oripov singari o'nlab, yuzlab ijodkorlar biri-biriga o'xshamagan, betakror asarlar yaratdilar. Shunda Ozod Sharafiddinovning "Iste'dod – xalq mulki" degan iborasi mag'rur jarangladi. Uning yutuqlaridan quvongan munaqqid har bir yaxshi namunasini kitobxon ahliga yaqinlashtirdi, ijodkor nazarda tutmagan jihatlarini kashf etdi, xalq farzandlarini adabiyotni tushunishga o'rgatdi.

Ozod Sharafiddinov iste'dodini, kelajakda katta ijodkor olim bo'lishini Abdulla Qahhordek ulug', xalqimiz sevgan adibimiz ko'ra bilgan va mehr qo'yib, bag'riga olgan edi. Abdulla Qahhor suhbatlarining birida Ozod Sharafiddinovni tilga olib: "Shunday yozmoq kerakki, nosfurush sening kitobing sahifasiga nos o'rab sotgan bo'lsa, uyida uni ochib, matniga ko'zi tushgan odam: "Iye, bu Ozodning gaplari-ku", deya sahifani ehtiyyot qilib, olib qo'ysin".

Bu haq gapni tan olgan va qadrlay bilgan Ozod Sharafiddinov "... bundek mukammal yozmoq uchun, bu darajada barkamol san'at namunasini yaratmoq uchun ijodkor Abdulla Qahhordek mehnatkash bo'lmog'i lozim. Bu esa hammaga ham nasib qilavermaydi. Faqat o'z Vatanini jon dilidan yaxshi ko'rgan, o'z xalqini har tomonlama barkamol ko'rishni istagan, ko'ksida istiqlol yolqini barq uralib turgan san'atkorgina bu baxtga musharraf bo'ladi", deb qayd etgan edi. Ustozni bunday ulug'lash va ularga ta'zim qila bilish uchun Ozod Sharafiddinovdek adabiyotshunos bo'lib yetilmoq kerak.

Ozod Sharafiddinov odil inson, zahmatkash olim, mehribon padar sifatida bu yorug' dunyoda muhtasham iz qoldirdi. O'zidan o'lmas ijodiy meros qoldirdi. Bu ijod nainki bir insonning, balki butun bir millatning faxru g'ururi bo'la oladigan ijoddir, o'zbek xalqining, millatimizning o'tmishi, buguni va kelajagiga dahldor ijoddir.

Ozod Sharafiddinov fikrat ibrati, jasorat ibrati, ta'b ibrati, zakovat ibrati singari bir qancha ibratlarni o'zida mujassamlashtirgan allomalarimizdan edi.





Ustozdan minglab shogirdlar qoldi. Bu shogirdlar nafaqat O'zbekistonda balki bizga ma'lum bo'lgan barcha mintaqalarda domla o'rgatgan ilm bayrog'ini baland ko'tarib, chirog'larini yoqib kelayotir.<sup>4</sup> Ozod Sharafiddinovning adabiyotshunoslik sohasida o'ziga xos dovyuraklik, jasorat bilan adabiyotga beg'araz qilgan xizmatlari ko'p qirralari bilan Abdulla Qahhorning fidoyiligidiga o'xshab ham ketadi. Olim yozganidek: "Kezi kelganda bir narsani aytib o'tay, odamlar meni Abdulla Qahhorning shogirdi deyishadi. Ochig'ini aytganda, men bu unvondan hamisha faxrlanib kelganman. Lekin shu bilan birga, hozirga qadar o'zimni Abdulla Qahhorning shogirdiman deyishga istihola qilaman. Tilim bormaydi. Biz har qancha u odamga yaqin bo'lmaylik, lekin Abdulla Qahhor iste'dodi jihatidan ham, aql-zakovati bobida ham, odamgarchilik masalasida ham bizdan bir necha barobar yuqori turar edi. Har qancha yaqin bo'lmaylik, oramizda hamisha ko'rinasib masofa saqlanib qolardiki, uni bosib o'tishga haddimiz sig'mas edi. Shuning uchun hatto hozir ham men o'zim ni baralla u kishining shogirdiman deb aytsam, oramizdag'i o'sha masofa qisqarib qoladiganday, men u kishini buyukliklariga sherik bo'layotganday bo'laveradi. Nazarimda: "Abdula Qahhor shogirdi" degan maqom shu qadar yuksakki, bunga sazavor bo'lmox uchun menga o'xshagan odamlar umr davomida harakat qilishlari kerak bo'ladi". Ozod Sharafiddinov ijodi, asarlari o'ziga xosligi, usuli va xarakteri bilan ajralib turadi. Yozuvchi o'z sohasida ko'rinarli mehnat qilgan. O'z ijod namunalari bilan doimo adabiyotimiz mulkini boyitib kelgan va fidoiyligi bilan bir talay ulkan cho'qqilarni zabit eta olgan. Olimning ilhom va mulohaza bilan yozgan asarlari adabiyotimizning takrorlanmas merosi bo'lib qoladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tohir Malik. Umidimiz yulduzlariga : "Odamiylik mulki" ga doir suhbatlar-Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti , 2018- 688 b.
2. B. Qosimov, V. Qodirov, Q. Yo'ldashev , J. Yo'ldoshbekov, Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua – Toshkent : "Sharq 2013- 368 b
3. "Kh-davron.uz" sayti <https://kh-davron.uz.emistry-biology> 1987. -640 p.
4. [http://mustaqillik.uz/uz/pages/Ozod\\_Shafafiddinov](http://mustaqillik.uz/uz/pages/Ozod_Shafafiddinov)
5. <https://oyina.uz/kiril/generation/75>
6. <https://akademiklar.uz/sharafiddinov-ozod>

<sup>4</sup> [http://mustaqillik.uz/uz/pages/Ozod\\_Shafafiddinov](http://mustaqillik.uz/uz/pages/Ozod_Shafafiddinov)

